

## **INGLIZ TILINING XALQARO TA’LIM HAMKORLIGIDAGI STRATEGIK O’RNI**

Dilfuza Normatova G’affarberganovna  
Ma’mun universiteti Linguistika (Ingliz tili) I bosqich magistranti  
E-mail: [dilfuzanormatova402@gmail.com](mailto:dilfuzanormatova402@gmail.com)  
Tel: +99 894 312 69 36

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158670>**

**Annotatsiya:** Ushbu moqolada ingliz tilining xalqaro ta’lim hamkorligini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz tilining global akademik muloqot, ilmiy tadqiqot va ta’lim integratsiyasidagi o’rni normativ-huquqiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayonidagi roli nazariy-uslubiy jihatdan asoslanadi hamda metodik yondashuvlar bilan boyitiladi.

**Kalit so’zlar:** tanqidiy fikrlash, xalqaro ta’lim, global integratsiya, akademik muloqot, til kompetensiyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya.

**Аннотация:** В статье анализируется стратегическое значение английского языка в развитии международного образовательного сотрудничества. Его роль в глобальной академической коммуникации, научных исследованиях и образовательной интеграции раскрывается на основе нормативно-правовых документов. Значимость критического мышления в образовании теоретически и методически обосновывается с учётом современных педагогических подходов.

**Ключевые слова:** критическое мышление, международная образование, глобальная интеграция, академическая коммуникация, языковая компетенция, межкультурная коммуникация.

**Abstract:** This article analyzes the strategic importance of the English language in fostering international educational cooperation. Its role in global academic communication, scientific research, and educational integration is examined based on regulatory documents. The significance of critical thinking in education is theoretically and methodologically substantiated and supported by contemporary pedagogical approaches.

**Keywords:** critical thinking, international education, global integration, academic communication, language competence, intercultural communication.

**Kirish.** Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi milliy chegaralar bilan cheklanib qolmasdan, balki xalqaro hamkorlik asosida ham yuqori bosqichga ko’tarilmoqda. Dunyoning ko’plab rivojlangan davlatlar oliy ta’lim muassasalari o’rtasidagi akademik almashinuv, qo’shma ta’lim dasturlari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va turli grant loyihalarining izchil kengayib borayotganligi yagona muloqot tiliga bo’lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonda ingliz tili xalqaro ta’lim hamkorligining asosiy kommunikativ vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda.

So’nggi yillarda mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy tajribalarni joriy etish va iqtidorli yoshlarning global bilimlar makoniga integratsiyasini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro ta’lim hamkorligi turli madaniyat, ta’lim tizimi va ilmiy maktablar o’rtasida samarali muloqotni talab etadi. Bu jarayonda ingliz tilini bilish nafaqat til kompetensiyasi, balki akademik va kasbiy muvaffaqiyat omili sifatida qaraladi. Shu ma’noda ingliz tili xalqaro ta’lim hamkorligini bog’lovchi asosiy *ko’prik* vazifasini bajaradi.



**Asosiy qism.** Zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida PF-5847 Farmoni qabul qilingan[1]. Shuningdek, PQ-231-sonli Qarorda xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish, qo’shma dasturlarni joriy etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirish ko’zda tutilgan[2]. Mazkur hujjatlar ingliz tilini o’qitish sifatini oshirish va uning xalqaro hamkorlikdagi strategik ahamiyatini normativ darajada mustahkamlab beradi.

Global integratsiya va madaniy almashinuv doirasida PF-5545-sonli Farmon bilan tashkil etilgan “El-yurt umidi” jamg’armasining faoliyati ingliz tilining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda[3]. Ushbu dastur doirasida ingliz tilini mukammal bilish xalqaro grant va stipendiyalardan foydalanishning muhim sharti hisoblanadi. Bu ko’pmaqsadli dastur faoliyati nafaqat xalqlar o’rtasidagi bilim, balki qadriyatlar va san’at almashinuvidir. Jamg’arma tomonidan global integratsiya va madaniy almashinuv mexanizmlari orqali amalga oshirilayotgan ishlar milliy madaniyatlarni yaqinlashtiradi, umumiy standartlarni shakllantiradi va global mehnat taqsimotini yuzaga keltiradi.

Xalqaro ta’lim hamkorligining samaradorligi til kompetensiyasi bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash va akademik muloqot ko’nikmalariga ham bevosita bog’liqdir. Bugungi global ta’lim maydonida ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki bilimlarni tahlil qilish, baholash va qayta shakllantirish imkonini beruvchi strategik omil hamdir.

Tanqidiy fikrlash - *Critical thinking*, bo’yicha dunyoga mashhur yetakchi ekspertlar, mualliflar va *Foundation for Critical Thinking* hammuassislari hisoblangan Linda Elder va Richard Paul (2001) tanqidiy fikrlash tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradilar: “*Critical thinking is best understood as the ability of thinkers to take charge of their own thinking.*”[4, B. 1]. Mazkur yondashuvga ko’ra, tanqidiy fikrlash shaxsning o’z tafakkur jarayonini ongli tarzda boshqarishi, fikrlarni tahlil qilishi va ularni asosli ravishda baholay olishi bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, Elder va Paul ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o’z-o’zidan yuz bermasligini ta’kidlab, “*If students are to become effective thinkers, teachers must explicitly teach for thinking.*”[5, B. 34] - degan qarash bildirishadi. Bu qarash ingliz tili ta’limida tanqidiy va kommunikativ yondashuvlarni maqsadli ravishda joriy etish zarurligini ko’rsatadi. Ayniqsa, xalqaro ta’lim hamkorligi doirasida ingliz tilini o’qitish talabalarni global akademik muhitga tayyorlashda muhim pedagogik vosita bo’lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ingliz tilini o’qitish metodikasi bo’yicha eng asosiy manbalardan biri U. Hoshimov va I. Yoqubovlarning (2003) “*Ingliz tili o’qitish metodikasi*” darsligidir. Ular darslikda chet tili o’qitishning *Rivojlantiruvchi maqsadi - Developmental goal* borasidagi fikrlari orqali bevosita talabaning fikrlash qobiliyatini o’stirishni nazarda tutishadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, chet tili darslari o’quvchining mantiqiy tafakkurini, kuzatuvchanligini va voqea-hodisalarga o’z munosabatini bildirish qobiliyatini rivojlantirishi kerak [6, B. 34-35]. Bu qarashdan o’rganuvchi so’z va iboralarning shunchaki leksik ma’nosini avtomatik yod olmasdan, ularni ijtimoiy muhitda faol qo’llay olishi zarurligini anglaymiz.

Darslikda ingliz tili o’qitish jarayoni bevosita tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilganligini ko’rishimiz mumkin. Mualliflar *cross-cultural* materiallar o’quvchida o’z



madaniyati va o’rganilayotgan til madaniyatini tanqidiy solishtirish ko’nikmasini hosil qiladi. Bu “intercultural awareness” (madaniyatlararo xabardorlik) ning asosi hisoblanadi [6, B 40-42] degan fikrni ilgari surishadi. Bugungi ulkan axborotlar olamida har bir shaxs shu kabi hodisalar bilan har kuni yuzma-yuz keladi. Bu esa ingliz tili o’qituvchilaridan tilni o’qitish bilan birga o’quvchilarning tafakkur olamini ham rivojlantirishda zamonaviy interfaol metodlarni samarali qo’llashliklarini taqazo etadi.

**Xulosa.** Demak, Elder va Paul tomonidan ilgari surilgan tanqidiy fikrlash konsepsiyasi ingliz tilini o’qitish jarayonida talabalarni mustaqil tahlil qilish, baholash va munosib xulosa chiqarishga o’rgatish zarurligini asoslasi, Hoshimov va Yaqubovlarning chet tillarni o’qitish bo’yicha ilmiy qarashlari ingliz tilini strategik ta’lim resursi sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi. Ingliz tili orqali olib boriladigan akademik ta’lim talabalarning nafaqat lingvistik, balki intellektual va analitik kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda o’qitishda tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya va innovatsion yondashuvlarni uyg’unlashtirish xalqaro ta’lim hamkorligining samaradorligini oshiradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, ingliz tili xalqaro ta’lim hamkorligining asosiy ko’prigi bo’lib, milliy ta’lim tizimini global bilimlar maydoni bilan bog’lashda muhim rol o’ynaydi. Chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini rivojlantirishga qaratilgan izchil ta’lim siyosati, zamonaviy metodik yondashuvlar va tanqidiy fikrlashga asoslangan ta’lim jarayoni raqobatbardosh, xalqaro maydonda faol ishtirok eta oladigan kadrlar tayyorlashning sutuvor talabi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O’zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi «Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chaora-tadbirlar to’g’risida»gi PQ-231-sonli Qarori.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabrdagi «El-yurt umidi» jamg’armasi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha PF-5545-sonli Farmoni.
4. Elder, L. & Paul, R. (2001) Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, p. 1.
5. Elder, L. & Paul, R. (1994) Critical thinking: Why we must transform our teaching. // Journal of Developmental Education, 18 (1), p. 34-35.
6. Hoshimov U. & Yoqubov I. (2003) Ingliz tili o’qitish metodikasi (English Teaching Methodology) Darslik. Toshkent: «Sharq» nashriyoti, B. 34-42.